

KADZUO ISIGURONING “KLARA VA QUYOSH” DISTOPIK ASARIDA
EVFIMIZMLAR MASALASI

Sohiba Begmatova

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

mustaqil izlanuvchisi

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: sokhibabegmatova@gmail.com

+998901860184

ANNOTATSIYA: Mazkur maqola zamonamizning mashhur adiblaridan biri Kadzuo Isiguroning “Klara and the Sun” (Klara va quyosh, 2021) distopik romanida evfemizmlarning qo‘llanilish masalasiga bag‘ishlanadi. Maqolaning asosiy maqsadi yozuvchining distopik asarlarida evfemizmlar ifodasi va o‘lardan ko‘zlangan natijani o‘rganishdir.

Kalit so‘zlar: Kadzuo Isiguro, evfemizmlar, syujet, distopiya, umumbashariy mavzular, salbiy voqelik, ijobiy ma’no.

Tilning taraqqiyoti natijasida evfemizmlarning yangi shakllari, aytilishi me’yor bo‘lib kelgan ko‘pgina so‘z va iboralar o‘rnida unga nisbatan yanada qulay, so‘zlovchi va tinglovchi uchun yoqimliroq bo‘lgan ifodalar paydo bo‘laveradi. Hassos, va shuning barobarida so‘zga “xasis” adib esa turli mazmundagi tushunchalarni ifodalash uchun bir so‘zning o‘zinigina evfemizim sifatida qo‘llaydi, ajablanarlisi shuki, u kishini zeriktirish o‘rniga jalb qiladi, tortadi. Narsa yoki voqelikni kuzatib, muhim belgi-xususiyatlarini ajratadi, umumlashtiradi, makoniy-zamoniy bog‘lanishlarni aniqlaydi va turli xil tusga soladi¹.

Bir guruh tadqiqotchilar, jumladan B.A. Larin², V.P. Moskvina³, L.P. Krisin⁴, N.T. Boschayeva⁵ ta’kidlashicha, evfemizmlarning asosiy vazifasi – nutqning kommunikativ qoidalariga rioya qilishdan iborat. Evfemizim salbiy voqelikni atashdan qochish, shunday voqelikning salbiy ta’sirini yumshatish uchun xizmat qilib, kishining izzat-nafsiga tegadigan, unga malol keladigan, hurmatsizlik ifodalaydigan, axloqiy me’yorlarga zid keladigan holatlarning yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytish mumkin bo‘lmagan maxfiy voqeliklarning salbiy ta’sirini kamaytirish, ularni yashirish, berkitish, noxush xabarni beozorroq, yumshoqroq shaklda yetkazish, ifodalash uchun ishlatiladi⁶. Nutq mavzusiga, nutqning adresatiga va muloqotning boshqa

1 Кадилова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2011. – Б. 91.

2 Ларин Б.А. Об эвфемизмах // Проблемы языкознания. – Л.:ЛГУ, 1961. – С.101-114.

3 Москвина В.П. Способы эвфемистической зашифровки в современном русском языке//Языковая личность: социолингвистические и эмотивные аспекты. Волгоград: Перемена, 1998. – С.160-168.

4 Крысин Л.П. Проблемы социальной дифференциации языка в современной лингвистике// Социолингвистика вчера и сегодня. М.:ИНИОН РАН, 2004. – С.75-93.

5 Босчаева Н.Ц. Контекстуальная эвфемия в современном английском языке: Автореф.дис...канд.филол.наук. – Л.: ЛГУ. 1989. – С. 15.

⁶Rabiyeva M., Davronova G. Evfemizmlarning muloqotda tutgan o‘rni// <file:///C:/Users/User/Downloads/Davronova+Gulruh+Ixtiyor+qizi.pdf>

ishtirokchilariga nisbatan, ya'ni muloqot sodir bo'lgan vaziyatga so'z va iboralar mos kelishi zarur⁷.

Nobel mukofoti sovrindori Kadzuo Isiguroning “Klara va quyosh” asarida ko'tarilgan – “lifted”, ko'tarilmagan – “unlifted”, “ozuqa” – “nourishment” quyosh nuri ma'nosini anglatuvchi evfemizm bo'lib kelgan: “The Sun, noticing there were so many children in the one place, was pouring in his nourishment through the wide windows of the Open Plan”⁸. Quyoshning botishi “dam olish joyi” – “resting place”, shaharlardagi graffiti suratlari “g'azabnok multfilm yozuvi” – “angry cartoon writing” kabi so'z birikmalari bilan ifoda qilingan.

Asarda ta'rifi keltirilmagan, “ko'tarilish” – “lifting” deb ataluvchi tibbiy muolaja Jozining betob bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu kasallik uning opasi Salni hayotiga allaqachon zomin bo'lgan edi. “Ko'tarilgan” – “lifted” bolalar o'zlarining “ekran” – “screen”larida uyda o'qitiladi va “o'zaro uchrashuvlar” – “interaction meetings”da ijtimoiylashuv ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Aksincha, Jozining qo'shni uyda yashovchi sevgilisi Rik ismli yigit irsiy “ko'tarilmagan” – “unlifted” o'spirin edi. Qo'shnilar uning g'alati fe'lli onasi Xelenda jasorat yetishmagan, shuning uchun farzandini ko'tarishga jur'at qilmagan bo'lsa kerak, deb taxmin qilishadi: “Then the adults began to greet Rick all at once, calling out kind things, but I noticed a strange caution in their voices”⁹. Bu distopik kelajakning ota-onalari farzandlari hayotidagi turli holatlarda bunday ko'tarilmagan bolalarning mavjudligi xavfli deb o'ylashadi. Kadzuo Isiguro uzoq yillardan keyin mana shunday talablar qo'yiladigan jamiyatga o'tishimizni tasavvur qilishimiz mumkin bo'lgan kelajak konturlarini chizadi.

Evfemik nutq tafakkurning, inson aql-zakovatining oliy formasi, “qaymog'i”, voqelikning pardoqlangan, “parda ichiga olingan”, bezorlashtirilgan, yumshatilgan obrazli ifodasidir¹⁰. Darhaqiqat, Kadzuo Isiguro distopik romanlarida qo'llanilgan evfemizmlar ana shunday “parda ichiga olingan” so'zlardan iboratki, kitobxon mutolaa mobaynida ulardan bezmaydi yoki muallifning so'zga xasislikda ayblamaydi. Evfemizmlar adibning voqelikni tasvirlashdagi mohirona yondashuvi o'laroq kitobxonni ham so'zning sehriga oshno qiladi. Bu o'rinda “So'zda sehr bor” degan azaliy haqiqatni evfemizmlar badiiyatdagi isboti bo'lib ko'rinadi.

Asar qahramoni Jozi o'qituvchisi bilan darsni oshxonada masofadan turib, “oblong” – “cho'zinchoq” deb nomlangan qurilmada vazifalarni bajarishi kerak: She turned off the oblong with a sigh and removed her headset. Then seeing me, she immediately brightened¹¹. Adib asarda texnika jihozlari yoki zamonaviy gadjetlar nomlari uchun ham yumshoq, sodda evfemizmlarni qo'llaydi.

Klaraning xizmati nihoyasida uning texnik ahvoli yomonlasha boradi: Saving Klara from a more abrupt end, Chrissie declares, “She deserves her slow fade”¹². Ushbu vaziyatda Klaraning zudlik bilan tugashi va chiqindixonaga olib chiqib ketilishini bir oz muddatga bo'lsa-da, kechiktirilishiga ishora qilinib, holat “ohista so'nish” evfemizmi yordamida tasvirlangan. Krissi Artur qizi Jozi uchun qayg'urgan va uning darddan forig' bo'lishi uchun bor imkoniyatini ishga solgan robotning so'nggi onlarini sokinlikda o'tishini xohladi.

⁷ Begmatova S.M. Kadzuo Isiguroning “Meni qo'yib yuborma” distopik romanida evfemizmlar va ularning asar mohiyatini ochishdagi roli // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2023. – №2. – B. 152-155. (10.00.00. № 3)

⁸ Tarjima: Quyosh ko'pchilik bolalarning bir joyga yig'ilganligini sezib, yirik deraza oynalari bo'ylab o'z ozuqasini berayotgan edi. (Tarjima muallifga tegishli) Ishiguro K. Klara and the Sun. – London: Faber and Faber, 2021. – P.80.

⁹ Tarjima: Kattalar jo'r bo'lib muloyim so'zlar ila Rik bilan salomlashishdi, ammo men ularning ovozi ehtiyotkorlik ohangini sezdim. (Tarjima muallifga tegishli) Ishiguro K. Klara and the Sun. – London: Faber and Faber, 2021. – P.76.

¹⁰ Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутк эвфемикаси. – Т.: Фан, 2006.-Б.6.

¹¹ Tarjima: U xo'rsinib cho'zinchoq'ini o'chirdi va quloqchinlarini yechdi. Meni ko'riboq chehrasi yorishib ketdi. (Tarjima muallifga tegishli) Ishiguro K. Klara and the Sun. – London: Faber and Faber, 2021. – P. 65.

¹² Tarjima: Krissi Klarani dahshatli vaziyatdan qutqarib, “U o'zining ohista so'nishiga munosib”, dedi. (Tarjima muallifga tegishli) Ishiguro K. Klara and the Sun. – London: Faber and Faber, 2021. – P.76.

Muxtasar aytganda, qahramonning nutqi asarda kitobxon ongiga to'g'ridan-to'g'ri emas, balki ruhiyatiga ta'sir qilishi lozim. Albatta, har qanday nutq kitobxonga bu tarzda ta'sir qilmaydi. Kadzuo Isiguro distopik romanlarida qo'llagan evfemizmlar kitobxonni asar qahramonlari ayanchli taqdiri bilan yuzlashtiradi, lekin u jirkanish, qo'rquv yoki uyat hislarini uyg'otmaydi. Mana shu o'rinda yozuvchining mahorati muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Begmatova S.M. Kadzuo Isiguroning "Meni qo'yib yuborma" distopik romanida evfemizmlar va ularning asar mohiyatini ochishdagi roli // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2023. – №2. – B. 152-155. (10.00.00. № 3)
2. Босчаева Н.Ц. Контекстуальная эвфемия в современном английском языке: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Л.: ЛГУ. 1989. – С. 15.
3. Кадирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2011. – Б. 91.
4. Крысин Л.П. Проблемы социальной дифференциации языка в современной лингвистике// Социоллингвистика вчера и сегодня. М.: ИНИОН РАН, 2004. – С.75-93.
5. Ларин Б.А. Об эвфемизмах // Проблемы языкознания. – Л.: ЛГУ, 1961. – С.101-114.
6. Москвин В.П. Способы эвфемистической зашифровки в современном русском языке// Языковая личность: социоллингвистические и эмотивные аспекты. Волгоград: Перемена, 1998. – С.160-168.
7. Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутқ эвфемикаси. – Т.: Фан, 2006. – 232 б.
8. Ishiguro K. Klara and the Sun. – London: Faber and Faber, 2021. – 320 p.